| <i>Eshonqulova Kamola Ibrohimovna</i>                                                                                                                                                              |     |
| Virusli infeksiyalar zamonaviy diagnostikasi va davolash usullarining biologik asoslari.....                                                                                                       | 259 |
| <i>Kaxorova Karomatxon Sovronbayevna</i>                                                                                                                                                           |     |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tafakkuri, mantiqiy fikrlarini rivojlantirishda<br>pedagogik o'yinlarning ahamiyati .....                                                                     | 262 |
| <i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>                                                                                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalash .....                                      | 265 |
| Nishonova Shohista Boymatovna                                                                                                                                     |     |
| Pedagogik jamoani rivojlantirish va motivatsiyalashning zamonaviy strategiyalari .....                                                                            | 268 |
| Pardayeva Yulduz Muradullayevna                                                                                                                                   |     |
| 15-16 yoshli voleybolchi qizlarning jismoniy rivojlanishining yoshga bog'liq xususiyatlari .....                                                                  | 272 |
| Po'latova Shahnoza Ikrom qizi                                                                                                                                     |     |
| Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....                                           | 276 |
| Raxmonov Baxtiyor Azzamovich                                                                                                                                      |     |
| Ingliz tili darslarida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quvchilarning til ko'nikmalariga ta'siri .....                                                      | 279 |
| Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi                                                                                                                                |     |
| Abu Ali ibn Sinoning matematika fanida qoldirgan merosi .....                                                                                                     | 283 |
| Toshboyeva Nargiza Yo'ldashevna, Tursunova Nigora Ulug'bek qizi                                                                                                   |     |
| Aksiologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....                                                                                               | 286 |
| Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li                                                                                                                              |     |
| Научные основы формирования навыков сотрудничества у детей дошкольного возраста посредством квест-игр .....                                                       | 290 |
| Джамилова Наргиза Нуритдиновна, Мухаммадиева Фарангиз                                                                                                             |     |
| Теоретические основы формирования международной компетенции обучающихся .....                                                                                     | 294 |
| Миркомилова Шахзода Асрор кизи                                                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich sinflar matematika darslarida kombinatorikaga oid masalalar .....                                                                                    | 300 |
| Roziqova Farizoda Ruyiddin qizi, Berdiyev Bahodir Ravshanovich                                                                                                    |     |
| pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari .....                                                                                                           | 305 |
| Eshbekova Dilnoza Ibraimovna                                                                                                                                      |     |
| Murakkab sintaktik qurilmalar va ularning matndagi paradigmatic o'rni .....                                                                                       | 308 |
| Turdiyeva Nilufar Anvarovna                                                                                                                                       |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish .....                                                                                      | 311 |
| Panjiyeva Shahlo Zulfikar qizi                                                                                                                                    |     |
| Kichik maktab yoshidagi zaif eshituvchi o'quvchilarning dialogik nutqining xususiyatlari .....                                                                    | 314 |
| Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi                                                                                                                                  |     |
| Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan talabalar mustaqil o'rganish jarayoni .....                                                                    | 320 |
| Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich                                                                                                                             |     |
| A System of Exercises Aimed at Developing Linguocognitive Competence in Future Psychologists .....                                                                | 324 |
| Allamuratov Gafur Ashurovich                                                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda jismoniy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari – natijalar misolida ..... | 327 |
| Asqarov Ahliddin Alisher o'g'li                                                                                                                                   |     |
| Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning monologik nutqini o'rganishning ilmiy asoslari .....                                                                       | 332 |
| Egamberdiyeva Shahnoza Akbar qizi                                                                                                                                 |     |
| Tog'ay Murod asarlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlar talqini .....                                                                                           | 335 |
| G'aybullayev Boburmirzo                                                                                                                                           |     |
| Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bolalar bilan korreksion ish tamoyillari .....                                                                            | 338 |
| Ikramova Dilafuz Furqat qizi                                                                                                                                      |     |
| Rahbarlik personaliga kadrlar tayyorlab berishning psixologik omillari .....                                                                                      | 341 |
| Karimjanova Yoqutxon Urinbaevna                                                                                                                                   |     |
| Integration of Modern Technologies in Teaching English .....                                                                                                      | 344 |
| Dautova Makhbuba Normamatovna                                                                                                                                     |     |
| Effective Teaching Methods for Enhancing Topic Vocabulary Acquisition in School Learners .....                                                                    | 347 |
| Absamadova Munira Isroilovna                                                                                                                                      |     |

|                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tafakkuri, mantiqiy fikrlarini rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning ahamiyati ..... | 352 |
| <a href="#">Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</a>                                                                             |     |
| Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarini o'qitishda ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....              | 355 |
| <a href="#">Xolmonov Mansur Narzulloyevich</a>                                                                              |     |
| Imperativ algoritmik tafakkurni rivojlantirishning kognitiv xususiyatlari .....                                             | 358 |
| <a href="#">Xushvaqtov Umar Norqobilovich</a>                                                                               |     |
| Perefrazalarni o'rganish jarayonidagi ilmiy yondashuvlar va ularning xususiyatlari .....                                    | 363 |
| <a href="#">Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</a>                                                                             |     |
| Интеграция русского языка в экономическое образование: значение и перспективы .....                                         | 366 |
| <a href="#">Адилова Солия Адиловна, Нуридинов Бехруз Акбар угли</a>                                                         |     |



# RAHBARLIK PERSONALIGA KADRLAR TAYYORLAB BERISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI



Karimjanova Yoqutxon Urinbaevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0000-0002-8721-5834>

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv ixtisosligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash psixologik bilimlarni talab qiladi. Boshqaruv sohasi kadrlarini tayyorlash bo'yicha ta'lim standartlari va namunaviy o'quv rejalari mazmunini yangilashda psixologik fanlarni majburiy tartibda kiritish zarur. Boshqaruv sohasidagi insonlarning mas'uliyatli, uddaburon, xalqparvar, ma'rifatli, adolatli, pozitiv, mulohazali bo'lishini ta'minlash dolzarb masalalardan biri sifatida talqin qilinadi. Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'limda Yangi O'zbekiston uchun kadrlar yetkazib berish kabi dolzarb masalalarning psixologik omillari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejasi, o'quv dasturlari, psixologik fanlar, ta'lim mazmuni, rahbarlik sohasiga kadrlarni yetkazib berish, sifatli ta'lim, ishbilarmonlik, xulq-atvor motivlari.

**Abstract:** Training specialists in management in higher educational institutions requires psychological knowledge. When updating the content of educational standards and standard curricula for training personnel in the field of management, it is necessary to introduce psychological disciplines in a mandatory manner. Ensuring that people in the field of management are responsible, resourceful, people-oriented, enlightened, just, positive, and thoughtful is interpreted as one of the urgent issues. This article examines the psychological factors of such pressing issues as personnel training for New Uzbekistan in modern higher education.

**Key words:** modern educational standard, model curriculum, educational programs, psychological disciplines, educational content, personnel training in the field of leadership, quality education, business acumen, behavioral motives.

**Аннотация:** Подготовка специалистов по управлению в высших учебных заведениях требует психологических знаний. При обновлении содержания образовательных стандартов и типовых учебных планов по подготовке кадров в сфере управления необходимо обязательное включение психологических дисциплин. Обеспечение того, чтобы люди в сфере управления были ответственными, предприимчивыми, народными, просвещёнными, справедливыми, позитивными, рассудительными, интерпретируется как один из актуальных вопросов. В данной статье рассматриваются психологические факторы таких актуальных вопросов, как подготовка кадров для Нового Узбекистана в современном высшем образовании.

**Ключевые слова:** современный образовательный стандарт, типовой учебный план, учебные программы, психологические дисциплины, содержание образования, подготовка кадров для руководящей сферы, качественное образование, деловая хватка, мотивы поведения.

## KIRISH

Dunyoga mashhur va tanilgan rahbarlarning tarjimai hollari bilan tanishganimizda, aksariyat hollarda ular o'zlarining kasbiy faoliyatlarida sezilarli yutuqlarga erishganliklarining asosiy sababi sifatida universitetlarning psixologiya fakultetlarida qo'shimcha ta'lim olganliklarini, ko'p bilimlar o'rganishlarini va o'z ustida tinmay ishlaganliklarini ta'kidlaydilar. Hozirgi kunda bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. So'nggi paytlarda boshqaruv nazariyasi va psixologiya tutashgan joyda ko'plab ilmiy ishlanmalar paydo bo'ldi. Ilgari ushbu ishlarda asosiy e'tibor psixologik jihatlarga emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy, texnik jihatlarga qaratilgan edi, biroq amaliyot shuni ko'rsatdiki, bu jihatlar boshqaruv sohasi kadrlarini tayyorlashda yetarli emas. Asosiy jihat bu – psixosomatika, fikrlashning to'g'riligi, ongning kengligi ekanligi faktlar bilan isbotlanmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak rahbarlar uchun eng asosiysi – tashkilotda inson xulq-atvori va faoliyati xususiyatlarini bilish va psixologik tushunish, mehnat jamoasining qulay ijtimoiy-psixologik muhitini yaratishdir. Bo'lajak rahbar uchun jamoaga to'g'ri kirishish, u yerda faol hayotiy pozitsiyani egallash muhim bo'lib, buning uchun unga psixologik moslik va hamjihatlik haqidagi bilimlar, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va muloqotning asosiy tomonlaridan biri sifatida kommunikativ kompetentlik zarur bo'ladi. Boshqaruv fakulteti bitiruvchilari atrof-dagilar bilan konstruktiv o'zaro ta'sir va hamkorlik qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Ularda ijtimoiy muhit va atrof-dagi insonlarga nisbatan pozitivlik sifatini shakllantirish hamda to'g'ri munosabatlar o'rnatish bo'yicha bilimlarni egallash muhim jihatlardan biridir.

Bir tomondan, bo'lajak rahbar mutaxassislarning shakllanishiga, ularning dunyoqarash xususiyatlariga va rahbar shaxsining kasbiy ijtimoiylashuviga; ikkinchi tomondan, boshqaruv faoliyatining ajralmas mexanizmi, regulyatori, umumiy kasbiy madaniyat va bo'lajak elitani shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida ta'sir qiluvchi bir qator psixologik omillar mavjud.

Psixologlarga ma'lumki, mutaxassis – bo'lajak rahbar shaxsining shakllanishi asosida psixologik yo'naltirilgan dunyoqarash yotadi. Bu esa atrof-dagi dunyoni, xulq-atvor xususiyatlarini, shaxsning boshqa odamlarga, umuman jamiyatga munosabatini, uning qadriyat yo'nalishlari, ishbilarmonlik xulq-atvorining motivlari va ehtiyojlari tabiatiga ta'sirini har tomonlama tushunishga yordam beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi ham jahon ta'limidan namuna olib, oliy ta'lim tizimida sifat jihatidan yangi standartlarga o'tishni va ta'lim sifatini oshirish ishlarini ko'plab sohalarida amalga oshirmoqda. Aynan shu maqsadda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash umumta'lim, mutaxassislik va talabalar tanlovi fanlarining uyg'unligini ifodalaydi, bu esa talabalardan tadqiqot mazmuni va predmetiga ko'ra tubdan farq qiladigan fanlarga ma'lum darajada yo'nalganlikni talab qiladi. Bo'lajak rahbar mutaxassislarni yetkazib, xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilish hamda xodimlari bilan to'g'ri munosabatlarni yo'lga qo'ya oladigan shaxs sifatida yetishtirish oliy maqsadlarimizdan biridir.

Zamonaviy oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarga o'zlari uchun eng qiziqarli va ahamiyatli bo'lgan o'quv fanlarini tanlash imkoniyatini berishdir. Talaba yoshlar psixologiyaning turli sohalarida inson xulq-atvori va faoliyatining xususiyatlarini o'rganadigan fanlarni hech ikkilanmasdan tanlaydilar. Respublikamiz miqyosida oladigan bo'lsak, masalan, o'tgan yili "Biznes boshqaruvi", "Logistika", "Axborot resurslarini boshqarish", "Boshqaruv psixologiyasi", "Salomatlik psixologiyasi", "Profayling", "Mehnat psixologiyasi" o'quv fanlarini boshqa fanlarga nisbatan ko'proq tanladilar. Hozirda yoshlarimizning ongi shu qadar rivojlanib ketganki, ular bo'lajak rahbarlarni sog'lom, kelishgan, pozitiv, sport bilan shug'ullanuvchi, to'g'ri mehnat qilish layoqatiga ega shaxs sifatida tasavvur qiladilar va shu jarayonlarga ruhiy tayyorgarliklarini boshlab yuborishgan. Yuqorida sanab o'tilgan psixologik fanlarsiz texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandis kadrlar tayyorlashni tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki oxir-oqibat muhandis emas, balki ofis xodimi bo'lib yetishish mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarimiz kuchli va ishonchli bo'lajak kadrlar bo'lishi sifatida respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa boshqaruv fakultetlarida, birinchi kurs talabalari "Mehnat psixologiyasi" o'quv fanini tanlashlari ayni damda maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Chunki biz o'zimizni nimaga moslashtirsak, keyinchalik shu biz uchun ko'nikma va malakaga aylanadi. Buyuk inson bo'lish uchun, avvalo, har bir inson mehnatni o'z yotog'ini yig'ishtirishdan boshlashi maqsadga muvofiqdir. Bunday amallarni to'g'ri bajarishni biz, albatta, "Mehnat psixologiyasi" fani orqali anglashimiz va odatlarimizga aylantirishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha fanlar hayotimizda muhim o'ringa ega bo'lgan bilimlarni bizga beradi.

*Birinchi*dan, mavjud voqelik talablarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoni mazmunini doimiy ravishda yangilab borish va talabalarga yoqadigan, shuningdek ularni tayyorlash o'quv rejasiga kiritishni xohlaydigan o'quv fanlarini tanlash zarur. Buning sababi shundaki, birinchi kurs talabalari yangi ta'lim sharoitlariga, chet ellik talabalar esa yashash sharoitlariga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasligi kabi dolzarb muammolarga duch kelishadi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv, o'z xulq-atvorini psixologik jihatdan tartibga solish talabaga ta'lim jarayoniga osonroq va tezroq kirishish, unda takomillashish imkonini beradi. Shuning uchun ham boshqaruv sohasida mutaxassis tayyorlash ta'lim jarayonini psixologik jihatdan ta'minlash muammosi bugungi kunda dolzarb, juda muhim va o'ta zarur hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, oliy ta'lim muassasasida o'qish davri yoshlar uchun kasbiy tayyorgarlik va shaxs ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan shakllanishning eng muhim bosqichi bo'lib, u inson shaxsining barcha psixik hodisalari, jarayonlari, holatlari va xususiyatlariga singib ketadi. Ta'lim jarayoni shaxsning yo'nalganligiga ta'sir ko'rsatadi.



Bu esa kelajakda unga odamlarni to'g'ri tushunishga va ularning o'zaro munosabatlari vaziyatlarini tushunishga yordam beradigan, shuningdek bo'lajak mutaxassisning kasbiy yaroqliligini aniqlaydigan bilimga intilishning asosiy omili hisoblanadi.

*Uchinchi*dan, kelajakda ta'lim faoliyatining psixologik ta'minlanmaganligi boshqaruv yo'nalishidagi kadrlar tayyorlashning sustligida o'z aksini topadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida psixologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojlar muhim ahamiyatga ega. Demak, boshqaruv ixtisosligi mutaxassisining ta'lim standartining bazaviy qismida ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida o'quv maqsadi sifatida talabalarda umuman bo'lajak kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlari to'g'risida tasavvurni shakllantirishga yordam beradigan psixologik komponent majburiy ravishda mavjud bo'lishi kerak.

*To'rtinchi*dan, oliy ta'lim muassasalarida uning ishtirokchilari uchun sog'liqni saqlash muhitini yaratish, ta'lim oluvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha rejali, maqsadli, tizimli va izchil ishlarni amalga oshirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologiya fanlari shaxslararo, guruhlararo va shaxsiy-guruhlararo ziddiyatlarni hal qila oladigan, kundalik ishda va kelajakdagi kasbiy faoliyatda qo'yilgan maqsadlarga erisha oladigan sog'lom va barkamol shaxsni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanadi, demak, psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Yuqorida aytilganlarni inobatga olgan holda, muallif ta'lim standartlari, boshqaruv yo'nalishidagi mutaxassisliklarni tayyorlashning namunaviy o'quv rejalariga majburiy tartibda psixologik o'quv fanlarini kiritish vaqti kelganligini ko'rsatadi va bu jarayonlar bizning mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Oliy ma'lumot olish inson hayoti va kelgusi faoliyatining, uning zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga, tashkilot jamoasiga kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuvining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi hamda ma'lum psixologik bilimlarni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayoni o'quv dasturlarini o'zlashtirishning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohada bo'lajak faoliyat uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yakunlari aynan shunga bog'liq bo'ladi. Psixologik tarkibiy qismlarning ta'lim jarayoniga o'z vaqtida o'zgartirish kiritish – bu bo'lajak boshqaruv mutaxassislarning kasbiy kompetentligi va yaroqliligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ko'plab mumkin bo'lgan harakat usullaridan birini tanlash jarayonidir. Ushbu jarayonlarni amalga oshirishimiz esa, kelajakda yoshlar hayotida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.B. Axmedjanov, A.X. Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2020. – 96 bet.
2. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2020. – 148 bet.
3. Haydarov A. Siyosiy madaniyat mas'uliyati. – Toshkent: "Tafakkur", 2009.
4. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2016. – 132 bet.
5. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent: "YUNAKS-PRINT" MCHJ bosmaxonasi, 2005. – 170 bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.